

**PSIXOLOG TALABALARINI KASBIY KUTISHLARINING
IJTIMOIY-PSIXOLOGIK JIATLARI**

Maxamatova Saida Sadreddinova

Andijon davlat universiteti

Umumiy psixologiya kafedrasini katta o'qituvchisi

Annotatsiya: maqolada psixolog talabalarni kasbiy kutishlarining ijtimoiy-psixologik omillari shakllashiga doir psixologik usul va vositalari, o'ziga xos xususiyatlari o'r ganilgan. Talabalarni o'quv faoliyatida kasbiy kutishlarining ijtimoiy-psixologik jarayonida ilmiy yondashuvlar, empirik tahlillar, kasbiy faoliyatga ijtimoiy-psixologik tayyorgarlikni shakllantirish omillari va shartlarini aniqlash va o'rganilayotgan jarayon samaradorligini oshirish bo'yicha usul va vositalari tadqiq qilingan va samarali tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy vaziya, mexanizmlar, shakllanish omillari, shartlari va ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, differentsial farqlar, kasbga qiziqish va kasb haqida xabardorlik.

**СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ
ОЖИДАНИЙ СТУДЕНТОВ-ПСИХОЛОГОВ**

Махамматова Саида Садриддинова

Андижанский государственный университет

Старший преподаватель кафедры общей психологии

Аннотация: В статье исследованы психологические методы и средства, специфика формирования социально-психологических факторов профессиональных ожиданий студентов-психологов. Исследованы и даны эффективные рекомендации по научным подходам, эмпирическому анализу социально-психологического процесса профессиональных ожиданий учащихся в учебной деятельности, методам и средствам выявления факторов и условий формирования социально-психологической готовности к профессиональной деятельности и повышения эффективности изучаемого процесса.

Ключевые слова: социальная ситуация, механизмы, факторы формирования, условия и социально-психологические особенности, дифференциальные различия, интерес к профессии и осознание профессии.

**SOCIO-PSYCHOLOGICAL FACTORS OF PROFESSIONAL
EXPECTATIONS OF PSYCHOLOGIST STUDENTS**

Makhammatova Saida Sadreddinova

Andijan State University

Senior Lecturer, Department of general psychology

Annotation: the article explores psychological methods and tools, specific features of the formation of socio-psychological factors of professional expectations of psychologist students. In the socio-psychological process of professional expectations

of students in educational activities, scientific approaches, empirical analyzes, methods and tools for determining the factors and conditions for the formation of socio-psychological training for professional activities and improving the effectiveness of the process under study are researched and presented effective recommendations.

Keywords: social situation, mechanisms, factors of formation, conditions and socio-psychological characteristics, differential differences, interest in the profession and awareness of the profession.

Jahonda amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarda mutaxassis psixolog o'zining boshqaruv va ijtimoiy sohalarda, davlat va jamiyatni boshqaruv tashkilotlarida, ilmiy-tadqiqot institutlarida, ijtimoiy-psixosotsiologik tadqiqotlar markazlarida, marketing va reklama agentliklarida, konsalting kompaniyalarida, ta'lim muassasalarida, ommaviy axborot vositalari va kommunikatsiyalarda, kadrlar xizmatlarida, ijtimoiy himoya markazlarida va boshqa tashkilotlarda ilmiy va amaliy faoliyatini amalga oshirishi mumkin.

Psixologik faoliyatda ham psixologiya nazariyalarida ham professional kutishlar hali ham yagona ta'rifga ega emas. "Kutish" tushunchasining turli xil psixologik talqinlari va ta'riflari ishlab chiqilib turli adabiyotlarda turlicha keltirilga.

Psixolog talabalarda o'z kasbiga doir psixologik bilimlarni egallashga, shaxs psixologiyasi, uning faoliyati va muloqoti, psixik taraqqiyot qonuniyatları, shaxsni psixologik metodlar yordamida o'rganish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Psixolog talabalarda kasbiy kutishlar tushunchasi o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida ularda:

- psixologik tushunchalarni, voq'elik va jamiyatdagi voq'ea-hodisalarni, shaxsning o'zida kechadigan ijtimoiy-psixologik jarayonlarni, shaxsni psixologik tadqiq qilish usullarini bilishi;

- talaba voq`elikni psixologik mushohada etish, narsa-hodisalarni ilmiylik va mantiqiylik asosida o'rganish, ilmiy tafakkur va psixologik tassavo'rning uyg'unligini ta'minlash, mustaqil va zamonaviy fikrlash, o'zining shaxsiy va kasbiy faoliyatida psixologik bilimlarni va qonuniyatlarni qo'llay olish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

- talaba voq'ea-hodisalarni psixologik nuqtai nazardan tahlil va tadqiq qilish, shaxs kasbiy faoliyati motivatsiyasi, faoliyat jarayonida yuzaga chiqadigan emotsiyonal va irodaviy sifatlari, individual psixologik xususiyatlari, shaxs va jamiyat orasidagi munosabatning psixologik qonuniyatlarini aniqlash va ular asosida kasbiy faoliyatni amalga oshirish malakalariga ega bo'ladilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lif-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida” 2018-yil 14-avgustdag'i PQ-3907-son qarori[1] ijrosini ta'minlash, shuningdek, umumiy o'rta va o'rta maxsus davlat ta'lif muassasalarida o'quvchilarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish[2] maqsadida yurtimizda bir qancha islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston olimlaridan psixologiya fanini o'rganishda psixologiya mutaxassisligi o'qituvchilarni tayyorlashdagi o'rni va boshqa sohalarga ta'sirini o'ganish, bu sohada amlida faoliyatini tahlil qilishimiz orqali psixolog

talabalarni kasbiy kutishlarining ijtimoiy-psixologik omillari shakllashini aniqlashga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqishni lozim topdik.

Bugungi kunda Oliy o'quv yurtlarida psixologiya ta'lim yo'nalaishlarini tashkil etish va kengaytirish borasidagi amaliy ishlardan, psixologiyaga oid muammolarni hal qilish mamlakat taraqqiyoti uchun naqadar muhimligini shundan ham bilsa bo'ladiki, ularni yechish nafaqat ta'lim rivojiga, balki iqtisodiyotdan tortib sportgacha, tibbiyotdan tortib tadbirkorlikkacha bo'lgan sohalar taraqqiyoti tezlashishiga sezilarli ta'sir o'tkazadi [3].

Psixolog talabalarni kasbiy kutishlarining ijtimoiy-psixologik omillari shakllashini aniqlashga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat bo'lib, ilmiy yondashuvlarni tizimlashtirish va kasbiy rivojlanish jarayonida talabalarining kasbiy faoliyatga ijtimoiy-psixologik tayyorgarligi tushunchasini aniqlashtirish orqali tadqiq etish, talabalarining kasbiy shakllanishi jarayonida kasbiy faoliyatga ijtimoiy-psixologik tayyorgarlikning nazariy modelini ishlab chiqish, psixolog talabalarini kasbiy faoliyat jarayonida kasbiy kutishlarni ijtimoiy-psixologik tayyorgarlikning empirik tahlil qilish, talabalarining kasbiy shakllanishi jarayonida kasbiy faoliyatga ijtimoiy-psixologik tayyorgarlikni shakllantirish omillari va shartlarini aniqlash va o'rganilayotgan jarayon samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Bu mavzuda o'zbek psixolog olimlaridan D.N.Arzikulov, M.G.Davletshin, S.X.Djalilova, S.N.Jo'raeva, V.M.Karimova, N.Dj.Sagindikova, SH.B.Saparov, B.N.Sirliev, SH.J.Usmanova, F.I.Xaydarov, D.I.Xodjakulova, B.R.Kodirov, K.B.Kodirov, E.R.Roziev va boshkalar kasbiy faoliyat, kasbiy shakllantirish, o'qish motivlari, kasbiy xususiyatlar rivojlanishining o'ziga xosliklari, kasbiy kamolot va uning bosqichlari kabi masalalarni ilmiy tadqiq etilganligini qayd etish o'rnlidir. Mustaqil Davlat Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan L.I.Antsiferova, Ye.A.Klimov, A.K.Markova, N.S.Pryajnikov, A.V.Petrovskiy, S.L.Rubinshteylar, mehnat psixologiyasi doirasida kasbiy kutish professional o'z taqdirini o'zi belgilash elementlarini shuningdek, B.G.Ananев, L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, B.F.Lomovlar esa insonning xulq-atvori va uning shaxsiyati u amalga oshiradigan faoliyatga va ushbu jarayon sodir bo'ladigan ijtimoiy guruhga bog'liq ekanligini o'rganganlar. Xorij olimlaridan I.N.Aleshina, G.M.Andreyeva, M.L.Gomelauri, E.V.Gordienko, V.G.Maralov, N.I.Iovyakel va T.Shibutanilar psixologiya fanida insonning xulq-atvori ijtimoiy tizim tomonidan tartibga solinishi o'rgangan bo'lsa, Dj.Atkinson, A.Bandura, E.Brunsvik, V.Vrums, V.V.Golubev, Dj.Rotter, E.Tolmen va X.Xekxauzenlar subyektiv kutishlar haqida psixologik ilmiy tadqiqotlar olib borganlar.

Kasbiy kutishlarning mohiyati va ahamiyati bo'yicha talaba yoshlarning kasbiy kutishlari ularning kelajakdagи kasbiy faoliyatini tanlash jarayoniga ta'sir qiluvchi markaziy psixologik omil ekanligi aniqlandi. Ushbu kutishlar nafaqat shaxsning o'ziga xos xususiyatlariga, balki uni o'rab turgan ijtimoiy muhitga ham bog'liqidir. Shuning uchun kasbiy kutishlarni o'rganish nafaqat individual, balki ijtimoiy omillarni hisobga olishni talab qiladi.

Kasbiy kutishlarning shakllanishi bo'yicha esa, kasbiy kutishlar neytral, ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkinligi va bu holatlarning talabalarining psixologik xulq-atvori

va keljakdagi kasbiy yo‘nalishlariga ta’sir ko‘rsatishi qayd etildi. Shaxsiy xususiyatlar va ijtimoiy muhit omillarining birgalikdagi ta’siri orqali talabaning kasbiy keljakka bo‘lgan qarashi shakllanadi.

Kasbiy kutishlarni o‘rganishning dolzarbligi aniqlab, mazkur mavzuni o‘rganishning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritildi. Talabalar orasida kasbiy kutishlarni to‘g‘ri shakllantirish ijtimoiy va psixologik jihatdan moslashuvchan mutaxassislar tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, ushbu jarayonni chuqurroq o‘rganish uchun individual va ijtimoiy ta’sirchanlikni o‘rganish bo‘yicha kompleks yondashuv talab etiladi.

Umuman olganda, ushbu bobda talaba yoshlarning kasbiy kutishlari muammosini o‘rganishning nazariy asoslari belgilandi, shaxsiy va ijtimoiy omillarning o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilindi va kelgusi tadqiqotlar uchun asosiy yo‘nalishlar taklif etildi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 14.08.2018 yildagi PQ-3907-son. <https://lex.uz/docs/-3864155>
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 12.07.2019 yildagi 577-son. <https://lex.uz/docs/-4417140>
3. **Abdullahjon Begmatov** — Tibbiy psixolog, prezident huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi qoshidagi Yoshlar muammolarini o‘rganish va istiqbolli kadrlar tayyorlash instituti «Boshqaruv psixologiyasi» kafedrasi professori.